VOL. 1 | ISSUE 2 | APRIL 2026

UNISCIENCE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL



UniScience
International scientific journal

ROBERT PARKNING SOTSIOLOGIK G‘OYALARI

Bobojonova Rihsixon Farhod qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
rixsihonbobajonova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada amerikalik sotsiolog Robert Ezra Park tomonidan ishlab chiqilgan sotsiologik qarashlar nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, jamiyat doimiy harakat va o‘zgarishda bo‘lgan ijtimoiy tizim sifatida talqin qilinadi hamda undagi jarayonlar insonlar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar orqali shakllanadi. Maqolada Parkning asosiy konsepsiyalari - inson ekologiyasi, shahar sotsiologiyasi va ijtimoiy jarayonlar nazariyasi (raqobat, konflikt, moslashuv va assimilyatsiya) ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, uning qarashlarining sotsiologiya fanidagi o‘rni, nazariyaning kuchli va cheklangan jihatlari ham ko‘rib chiqilgan. Natijada, Park g‘oyalari jamiyatni tabiiy rivojlanish qonuniyatlari asosida tushuntiruvchi muhim nazariy yondashuv ekanligi aniqlangan.*

Аннотация. *В данной статье теоретически анализируются социологические взгляды, разработанные американским социологом Робертом Эзрой Парком. Согласно этому подходу, общество интерпретируется как социальная система, находящаяся в постоянном движении и изменении, а процессы в ней формируются посредством взаимодействия людей и социальных групп. В статье научно рассматриваются основные концепции Парка — экология человека, городская социология и теория социальных процессов (конкуренция, конфликт, адаптация и ассимиляция). Также рассматривается*

место его взглядов в социологии, сильные и слабые стороны теории. В результате установлено, что идеи Парка представляют собой важный теоретический подход, объясняющий общество на основе законов естественного развития.

Kalit so'zlar: *R.Park, inson ekologiyasi, shahar sotsiologiyasi, ijtimoiy jarayonlar, raqobat, konflikt, moslashuv, assimilyatsiya, migratsiya, sotsiologik nazariya*

Ключевые слова: *Р. Парк, экология человека, городская социология, социальные процессы, конкуренция, конфликт, адаптация, ассимиляция, миграция, социологическая теория.*

Kirish. Zamonaviy sotsiologiya fanida jamiyat va inson o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni ilmiy asosda tushuntirishda klassik sotsiologlarning nazariyalari muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, XX asr boshlarida AQShda shakllangan Chikago maktabi vakillari jamiyatni empirik kuzatish va nazariy tahlil asosida o‘rganishga yangi yondashuv olib kirgan. Ushbu yo‘nalishning yetakchi namoyandalaridan biri Robert Ezra Park hisoblanadi [1].

G. Jiyanmuratovaning “Sotsiologiya tarixi” darsligida qayd etilishicha, R. Park sotsiologiyada, ayniqsa, shahar hayotini o‘rganish orqali ijtimoiy jarayonlarni tushuntirishga katta hissa qo‘shgan olim sifatida tavsiflanadi. U jamiyatni qat’iy va o‘zgarmas tuzilma emas, balki insonlar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi doimiy o‘zaro ta’sirlar natijasida shakllanib boruvchi jarayon sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv sotsiologiyada dinamik tahlilning rivojlanishiga asos bo‘lgan. R. Parkning ilmiy qarashlarida shahar muhitini tahlil qilish markaziy o‘rin egallaydi. U shaharni ijtimoiy jarayonlar eng yaqqol namoyon bo‘ladigan makon sifatida ko‘rib, uni “ijtimoiy laboratoriya” deb ataydi. Bu fikr Park va Burgessning *“Introduction to the Science of Sociology”* asarida bayon etilgan bo‘lib, unda shahar hududi turli ijtimoiy guruhlar

o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar markazi sifatida izohlanadi [2]. Shuningdek, Park tomonidan ishlab chiqilgan inson ekologiyasi nazariyasi jamiyatni tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur nazariyaga ko‘ra, jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar tabiiy muhitdagi organizmlar singari resurslar uchun raqobatga kirishadi va bu jarayon ijtimoiy tuzilmaning shakllanishiga olib keladi. Ushbu yondashuv Jiyanmuratova tomonidan ham Park sotsiologiyasining asosiy konseptual yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari, Park ijtimoiy jarayonlarni tizimli ravishda tushuntirib, ularni raqobat (competition), konflikt (conflict), moslashuv (accommodation) va assimilyatsiya (assimilation) bosqichlari orqali izohlaydi. Ushbu bosqichlar ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarning evolyutsion rivojlanishini ifodalaydi. Mazkur model Park va Burgess tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, sotsiologiyada ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishda muhim nazariy asos sifatida e’tirof etiladi.

Zamonaviy sotsiolog George Ritzer Parkning ilmiy merosini baholar ekan, uning g‘oyalari urban sotsiologiya va ijtimoiy jarayonlarni tushuntirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Xususan, Park tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar bugungi kunda urbanizatsiya, migratsiya va madaniy integratsiya jarayonlarini tahlil qilishda qo‘llanilmoqda [3]. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — Robert Ezra Park ning sotsiologik g‘oyalarini ilmiy manbalar asosida nazariy jihatdan tahlil qilish, uning asosiy tushunchalari va konsepsiyalarini ochib berish hamda zamonaviy sotsiologiya fanidagi o‘rnini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. R. Parkning sotsiologik qarashlarini o‘rganishda zamonaviy va klassik ilmiy manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, G. Jiyanmuratovaning “Sotsiologiya tarixi” darsligida Robert Ezra Park ning ilmiy merosi, ayniqsa uning shahar sotsiologiyasi va inson ekologiyasi haqidagi qarashlari tizimli ravishda yoritilgan. Mazkur manbada Park Chikago maktabining

yetakchi vakili sifatida baholanib, uning jamiyatni empirik kuzatish va nazariy umumlashtirish asosida o‘rganishga qo‘shgan hissasi alohida ta’kidlanadi [1]. Parkning asosiy nazariy g‘oyalari bevosita uning o‘z asarlarida bayon etilgan. Jumladan, Park va Burgess tomonidan yozilgan *“Introduction to the Science of Sociology”* asarida ijtimoiy jarayonlar konsepsiyasi batafsil yoritilgan bo‘lib, unda jamiyatdagi guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar raqobat, konflikt, moslashuv va assimilyatsiya bosqichlari orqali izohlanadi [2]. Aynan ushbu manba Park nazariyasining asosiy tushunchalarini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Shuningdek, Parkning inson ekologiyasi haqidagi qarashlari ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Ushbu nazariyaga ko‘ra, jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar tabiiy muhitdagi organizmlar singari resurslar uchun kurashadi va bu jarayon ijtimoiy tuzilmaning shakllanishiga olib keladi. Mazkur fikr Jiyanmuratova tomonidan ham Park sotsiologiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan [1]. Zamonaviy sotsiologik manbalarda ham Parkning ilmiy merosi yuqori baholanadi. Jumladan, George Ritzer o‘zining *“Sociological Theory”* asarida Parkni urban sotsiologiya va ijtimoiy jarayonlar nazariyasining rivojiga katta hissa qo‘shgan olim sifatida tavsiflaydi . Ritzerning ta’kidlashicha, Park tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar zamonaviy jamiyatda urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Bundan tashqari, Randall Collins Parkni sotsiologiyaning asosiy an’analaridan biri - empirik va amaliy yo‘nalish vakili sifatida baholaydi hamda uning qarashlari ijtimoiy munosabatlarni tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlaydi [5]. Bu esa Park g‘oyalarining nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Maqolada metodologik yondashuv sifatida asosan nazariy tahlil usuli qo‘llanildi. Ushbu usul yordamida Jiyanmuratova darsligi hamda Parkning asosiy asarlarida bayon etilgan g‘oyalar tizimli ravishda o‘rganildi va umumlashtirildi. Shuningdek, solishtirma

tahlil usuli orqali turli sotsiologlarning (Ritzer, Collins) qarashlari o‘zaro taqqoslanib, Park nazariyasining o‘ziga xos jihatlari aniqlashtirildi. Bundan tashqari, interpretativ yondashuv asosida Park tomonidan ilgari surilgan tushunchalar - inson ekologiyasi, ijtimoiy jarayonlar va shahar sotsiologiyasi mazmuni izohlandi. Ushbu metod orqali nazariyaning ichki mohiyati ochib berildi va uning sotsiologiya fanidagi o‘rni aniqlashtirildi. Maqolada empirik tadqiqot o‘tkazilmadi. Tadqiqot jarayonida faqat ikkilamchi manbalardan, ya’ni ilmiy darsliklar va nazariy asarlardan foydalanildi. Bu esa ishning nazariy xarakterga ega ekanligini va barcha xulosalar mavjud ilmiy adabiyotlarga tayangan holda chiqarilganini ko‘rsatadi.

Muhokama. R. Parkning sotsiologik qarashlari jamiyatni tushuntirishda muhim nazariy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Robert Ezra Park jamiyatni statik tizim emas, balki doimiy o‘zgarishda bo‘lgan ijtimoiy jarayon sifatida talqin qiladi . Uning fikricha, jamiyatdagi barcha munosabatlar insonlar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida shakllanadi va rivojlanadi [1]. Inson ekologiyasi nazariyasi. Parkning eng muhim nazariyalaridan biri inson ekologiyasi konsepsiyasidir. Ushbu yondashuvga ko‘ra, jamiyat tabiiy muhitga o‘xshash tarzda rivojlanadi va undagi guruhlar resurslar uchun raqobat olib boradi. Park bu jarayonni biologik tizimlarga qiyoslab tushuntiradi, ya’ni ijtimoiy guruhlar ham yashash hududi va imkoniyatlar uchun kurashadi [2].

G. Jiyanmuratova ushbu nazariyani izohlar ekan, jamiyatdagi hududiy joylashuv va ijtimoiy tabaqalanish aynan shu raqobat natijasida shakllanishini ta’kidlaydi [1]. Demak, inson ekologiyasi jamiyat tuzilishini tushuntirishda muhim konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy jarayonlar modeli. Park ijtimoiy rivojlanishni to‘rt asosiy bosqich orqali tushuntiradi: raqobat, konflikt, moslashuv va assimilyatsiya. Ushbu model Park va Burgess tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, jamiyatdagi guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarning evolyutsion xarakterini ifodalaydi [2]. Raqobat bosqichida guruhlar resurslar uchun kurashadi, konflikt bosqichida esa qarama-

qarshilik yuzaga keladi. Moslashuv bosqichida guruhlar muayyan muvozanatga keladi, assimilyatsiya jarayonida esa ular o‘zaro uyg‘unlashadi. G.Jiyanmuratovaning ta’kidlashicha, ushbu model ayniqsa migratsiya va urbanizatsiya jarayonlarini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Shahar sotsiologiyasi. Park sotsiologiyasida shahar markaziy o‘rin egallaydi. U shaharni ijtimoiy jarayonlar eng yaqqol namoyon bo‘ladigan makon sifatida baholaydi va uni “ijtimoiy laboratoriya” deb ataydi [2].

Park va Burgess asarida shahar hududi ijtimoiy zonalarga bo‘linishi va har bir zona o‘ziga xos ijtimoiy xususiyatlarga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi. G.Jiyanmuratova ham Parkning ushbu yondashuvini izohlar ekan, shahar turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar markazi ekanligini ta’kidlaydi. Bu esa shaharni sotsiologik tahlil uchun muhim obyektga aylantiradi. Ijtimoiy nazorat va jamoatchilik fikri. Park ijtimoiy nazorat masalasiga ham alohida e’tibor qaratgan. U jamiyatda tartibni saqlashda jamoatchilik fikri va kommunikatsiya vositalari muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. George Ritzer Parkning ushbu qarashlarini sharhlar ekan, ommaviy kommunikatsiya vositalari jamiyatdagi ijtimoiy ongni shakllantiruvchi asosiy mexanizmlardan biri ekanligini ko‘rsatadi [3]. Bu esa Park nazariyasining nafaqat klassik, balki zamonaviy sotsiologiyada ham dolzarb ekanligini tasdiqlaydi. Nazariyaning cheklovlari. Shu bilan birga, Park nazariyasining ayrim cheklovlari ham mavjud. G.Jiyanmuratovaning ta’kidlashicha, uning yondashuvi ko‘proq tabiiy jarayonlarga asoslangani sababli, ijtimoiy tengsizlik, siyosiy tizim va iqtisodiy omillar yetarlicha chuqur yoritilmagan.

Randall Collins ham Parkni empirik yo‘nalish vakili sifatida baholab, uning nazariyasi ko‘proq mikro va makoniy jarayonlarga qaratilganini qayd etadi [5]. Bu esa nazariyaning ayrim cheklangan jihatlarini ko‘rsatadi.

Natija. Mazkur nazariy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Robert Ezra Park tomonidan ishlab chiqilgan sotsiologik qarashlar jamiyatni tushuntirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Park jamiyatni statik va o‘zgarmas tizim sifatida emas, balki

doimiy harakat va o‘zgarishda bo‘lgan ijtimoiy jarayon sifatida talqin qiladi, bu esa sotsiologiyada dinamik yondashuvning shakllanishiga olib kelgan [1]. Nazariy tahlil davomida aniqlanishicha, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar insonlar va guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar natijasida yuzaga keladi va rivojlanadi, bu fikr Parkning inson ekologiyasi konsepsiyasida ham o‘z ifodasini topadi [2]. Tahlil natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, Park tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy jarayonlar modeli - raqobat, konflikt, moslashuv va assimilyatsiya bosqichlari - jamiyatdagi guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarning izchil rivojlanishini tushuntirishda muhim nazariy vosita hisoblanadi. Ushbu model ayniqsa migratsiya va urbanizatsiya jarayonlarini tahlil qilishda samarali ekanligi Jiyanmuratova tomonidan ham qayd etilgan. Natijada, ijtimoiy tizimning shakllanishi va rivojlanishi tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi asosida yuz berishi aniqlanadi.

Bundan tashqari, nazariy tahlil Parkning shahar sotsiologiyasi sohasidagi qarashlari ham muhim ilmiy natijalarga olib kelishini ko‘rsatadi. Shahar ijtimoiy jarayonlar eng yaqqol namoyon bo‘ladigan makon sifatida talqin qilinib, unda turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar tizimli ravishda kuzatilishi mumkin. Shu asosda, shahar jamiyatni o‘rganishda asosiy obyektlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Zamonaviy sotsiologik yondashuvlarda ham Parkning ushbu qarashlari o‘z dolzarbligini saqlab qolgan bo‘lib, urbanizatsiya va ijtimoiy makon masalalarini tushuntirishda qo‘llanilmoqda [3]. Shuningdek, Parkning ijtimoiy nazorat va jamoatchilik fikri haqidagi qarashlari ham jamiyatni tushuntirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, jamiyatda tartibni saqlash jarayoni faqat rasmiy institutlar orqali emas, balki ijtimoiy ong va kommunikatsiya vositalari orqali ham amalga oshiriladi. Bu esa ijtimoiy tizimning barqarorligini ta’minlashda norasmiy mexanizmlarning ham muhim o‘rin tutishini anglatadi. Umuman olganda, Park sotsiologik g‘oyalarining jamiyatni kompleks tarzda tushuntirish imkonini berishini

ko‘rsatadi. Uning konsepsiyalari ijtimoiy jarayonlarning ichki mexanizmlarini ochib berishga xizmat qiladi hamda zamonaviy sotsiologiyada ham o‘z ahamiyatini saqlab qolayotgan muhim nazariy asoslardan biri ekanligini tasdiqlaydi .

Xulosa. Yuqoridagi nazariy tahlillar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, Robert Ezra Park sotsiologik qarashlari jamiyatni dinamik, o‘zgaruvchan va murakkab tizim sifatida tushuntirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning yondashuvi jamiyatni statik tuzilma emas, balki insonlar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi uzluksiz o‘zaro ta’sirlar mahsuli sifatida talqin qiladi. Bu esa sotsiologiyada jarayonlarga asoslangan tahlilning shakllanishiga katta hissa qo‘shgan. Nazariy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Park tomonidan ilgari surilgan inson ekologiyasi konsepsiyasi jamiyatdagi ijtimoiy tuzilma va hududiy joylashuvni tushuntirishda samarali nazariy vosita hisoblanadi. Unga ko‘ra, “ijtimoiy guruhlar tabiiy muhitdagi organizmlar kabi resurslar uchun raqobatga kirishadi”, bu esa ijtimoiy tabaqalanish va makoniy farqlanishning shakllanishiga olib keladi. Mazkur fikr G. Jiyanmuratova tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanib, jamiyatdagi ijtimoiy differensiallashuvning muhim omili sifatida izohlanadi [3].

Shuningdek, Park va Ernest Watson Burgess tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy jarayonlar modeli — raqobat, konflikt, moslashuv va assimilyatsiya bosqichlari — jamiyatdagi guruhlararo munosabatlarning evolyutsion rivojlanishini izohlovchi muhim konseptual sxema hisoblanadi. Ular ta’kidlaganidek, “ijtimoiy tartib bu jarayonlarning muvozanatlashuvi natijasidir”. Ushbu model ayniqsa migratsiya va urbanizatsiya jarayonlarini tahlil qilishda o‘zining amaliy ahamiyatini namoyon etadi. Bundan tashqari, Parkning shahar sotsiologiyasiga oid qarashlari ham muhim ilmiy xulosalarga olib keladi. U shaharni “ijtimoiy laboratoriya” sifatida baholab, unda ijtimoiy jarayonlar eng yaqqol shaklda namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Bu yondashuv hozirgi kunda ham urban sotsiologiya doirasida keng qo‘llanilmoqda. George Ritzer

fikricha, Park nazariyalari “urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarini tushuntirishda dolzarbligini saqlab qolmoqda”. Shu bilan birga, tahlil Park nazariyasining ayrim cheklovlarini ham ko‘rsatdi. Xususan, uning yondashuvi ko‘proq tabiiy va makoniy jarayonlarga urg‘u berib, siyosiy va iqtisodiy omillarni yetarli darajada chuqur yoritmaydi. Bu jihat Randall Collins tomonidan ham qayd etilib, Park yondashuvi ko‘proq empirik va mikro darajadagi tahlillarga yo‘naltirilgani ta’kidlanadi.

Umuman olganda, ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Parkning sotsiologik g‘oyalari jamiyatni kompleks va tizimli tarzda anglash imkonini beradi. Uning konsepsiyalari ijtimoiy jarayonlarning ichki mexanizmlarini ochib berishga xizmat qiladi hamda zamonaviy sotsiologiyada ham nazariy va amaliy ahamiyatini saqlab qolayotgan muhim ilmiy meros sifatida baholanadi.

UniScience
International scientific journal

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jiyanmuratova G.Sh. Sotsiologiya tarixi.–T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.–466 b.

2. Park, R. E., Burgess, E. W. *Introduction to the Science of Sociology*. – Chicago: University of Chicago Press, 1921. – 1040 p.

3. Park, R. E. *Human Ecology*. – American Journal of Sociology, 1936. – Vol. 42, No. 1. – P. 1–15.

4. Ritzer, G. *Sociological Theory*. – New York: McGraw-Hill Education, 2011. – 7th ed. – 688 p.

5. Collins, R. *Four Sociological Traditions*. – New York: Oxford University Press, 1994. – 282 p.